

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-dekabrida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 10 477,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 12 500,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,7 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 2,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr)

	Mlrd.so'm		2018 yilga nisbatan % da
	2018 y.	2019 y.	
I. YaHM	8 066,3	10 477,7	103,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 615,9	9 679,7	103,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	450,4	798,0	105,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 615,9	9 679,7	103,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 517,8	4 109,8	101,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 197,0	3 169,1	105,9
sanoat	1 747,9	2 517,8	102,4
qurilish	449,1	651,3	119,5
Xizmatlar	1 901,1	2 400,8	104,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	427,0	490,9	102,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	345,1	376,8	104,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 129,0	1 533,1	105,8

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o`shish sur'atlari YaHM o`shishida asosiy omil bo`lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ining o`shish sur`ati 101,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 42,5 %), sanoat – 102,4 % (26,0 %), qurilish – 119,5 % (6,7 %), xizmatlar - 104,8 % (24,8 %) ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`shish sur'atlari




iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 92,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,6 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr (46,2 %) ga nisbatan qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi sohasi YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 3,7 % punktga kamaydi va hisobot yilida 42,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 3,8 % punktga ko`payib, 32,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 24,8 % ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (24,9 %) bilan taqqoslanganda 0,1 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,1 % ni (2018 yil yanvar-dekabr – 5,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 3,9 % ni (4,5 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,8 % ni (14,8 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: U.Elmutarov
(0371) 230-86-14